

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA, MATAL VA IBORLARIDA "CHOL" KONSEPTINING TALQINI

Hasanov Husniddin Kamol o'g'li,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute o'qituvchisi
hasanovhusniddin1704@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik, uning o'rganish doirasi bevosita paremiologik birliklar orqali o'rganilgan. "Chol" konseptining lingvokognitiv xususiyatlari maqol, matal, iboralar orqali ifodalangan.

Kalit so'zlar. Maqol, matal, ibora, konsept, kognitiv tilshunoslik, sfera, "chol" konsepti.

ÖZBEK HALK ATASÖZLERİ, DEYİŞLERİ VE DEYİMLERİNDE “YAŞLI ADAM” KAVRAMININ YORUMLANMASI

Hasanov Hüsniddin Kamal'in oğlu,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğretmeni

Özet. Bu makale bilişsel dilbilimi ve çalışma alanını doğrudan paremiyolojik birimler aracılığıyla incelemektedir. "Yaşlı adam" kavramının dilsel-bilişsel özellikleri atasözleri, deyimler ve deyimlerle dile getirilmektedir.

Anahtar kelimeler. Atasözü, deyim, ifade, kavram, bilişsel dilbilim, küre, "yaşlı adam" kavramı.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ "СТАРИК" В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ, ПОГОВОРКАХ И ВЫРАЖЕНИЯХ

Хасанов Хусниддин Камол оглы,
ассистент Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье когнитивная лингвистика и ее предмет изучения рассматриваются непосредственно через паремиологические единицы. Лингвокогнитивные свойства концепта «старик» выражены через пословицы, поговорки и выражения.

Ключевые слова. Пословица, идиома, выражение, концепт, когнитивная лингвистика, сфера, концепт "старик".

INTERPRETATION OF THE TERM "STARIK" AND UZBEK PEOPLE

Hasanov Husniddin Kamol oglu,
assistant at the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. This article studies cognitive linguistics, its field of study directly through paremiological units. The linguocognitive properties of the concept of "old man" are expressed through proverbs, sayings, and expressions.

Keywords. Proverb, saying, expression, concept, cognitive linguistics, sphere, concept of "old man".

Kirish. Barchamizga ma'lumki, azal-azaldan xalqimizning donishmandlik haqidagi maqol, matal, afsona, rivoyat va ertaklarida yoshi ulug' qariyalar, nuroniy chollar, kampirlar, otalar va ularning aqli va aqlsiz, o'z bilganidan qolmaydigan farzandlari haqida ko'plab hayotiy voqealarga yuzma-yuz kelamiz. Negaki, bizning ota-bobolarimiz o'zlari misqolab yiqqan milliy qadriyatlarini

ko'z qorachig'idek asragan va ularni hayot yo'llarida katta mashaqqatlar bilan sayqallab, tajribalarini mustahkamlashda unumli foydalanishgan, xalqimizda "*Qari bilganni – pari bilmas*" kabi maqollarning o'ziyoq yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni to'laqonli quvvatlashga asos bo'la oladi. Chunki qariya, nuroniy oqsoqol, mahalla yoshi ulug'i, choli-yu, kampiri ana shu milliy o'g'itlarimizni har doim yodimizga soladi. "O'talar so'zi – aqlning ko'zi" kabi o'lmas maqollarimizning o'zida qanchadan qancha ma'no o'z tajassumini topadi. Inson boshiga har qanday vaziyatda Alloh taolo mislsiz sinovlar yuborib turadi. Ana shunday og'ir vaziyatlarda har qanday ShAXSning kamarbastasi, habibi yoki uning suyanishga, madad olishga katta ishongan insoni bo'ladi. Bu ham bo'lsa, xalqimizning, vatanimizning qariyalari, otalari, bobolari va nuroniylaridir.

Kundan kunga jadal suratlarida taraqqiy topib, yangi nazariy-ilmii o'zanlar "kashf"iga keng imkoniyatlar ochib berayotgan global dunyo modifikatsiyasida mislsiz evrilishlar ro'y bermoqda. Otaning oilada o'rni qanchalik ulug' bo'lsa, qariyalar, chollar va nuroniylarning keskir o'g'itlari, so'zlari, bir so'z bilan aytganda hayotiy tajribalari shunchalik muhimdir. Bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. Mana shu munosabatga diqqat qaratadigan bo'lsak, birgina – chol konseptining turli xil janrlar-u, shakllarda o'ziga xos modifikatsion qamrov jadalligiga aylanganini ko'ramiz. Xalqimizning azal-azaldan qadriyatga aylangan, donishmandlik va halollik, poklik va ulug'lik, mehr-muhabbat va odamiylik kabi o'lmas tushunchalarining bir-biridan farqlanishini, o'ziga xos kriteriyalar chegarasida namoyon bo'lish strukturasi talqin qilishga diqqat qaratamiz.

"Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. *Maqol* o'zbek tilida *maqol*, tojiklarda *zarbulmasal*, ruslarda *poslovitsa*, arablarda (jonli so'zlashuvda) *naql*, turklarda *ata so'zi* atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamsi arabcha [قَوْل] – qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda "*qavlun*" – *gap*, so'z ma'nosini ifodalasa, tojiklarning "*zarbulmasal*" atamalarida misol keltirish, ruslar "*poslovitsa*"sida so'zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi "*ota so'zi*"da esa ajdodlar fikrini eslash ma'nosi yetakchi.

Maqollar va matallarni o'rganuvchi sohani tilshunos olimlar paremiyalogiya deb atashadi. Uning qisqa va ko'pincha she'riy misralar kabi bo'lishi, aniqlik, lo'ndalik hamda sermazmunlik kasb etishini, bir so'z bilan qanchadan-qancha ma'no beruvchi xususiyatini ham unutmaslik lozim. Maqollarning turli xil mazmuniga qarab tasniflash mumkin. U qanday vaziyatda va qay o'rinda ishlatilishiga qarab ajratib, uning ma'nolarni talqin qilish ishonchni oqlaydi.

O'zbek tilining yashirin xazinasini haqida tushuncha. Dunyodagi barcha tillarning bir-biriga o'tib, rivojlantirib turuvchi nihoyatda keng atamalar borki, uni nazariy jihatdan tadqiq etish joriy lingvo-kognitiv tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu ma'noda, tilshunoslikdagi har bir so'z o'zining ma'no anglatuvchi xususiyatiga ega bo'lishi bilan bir qatorda, juumlalarni semantik-stilistik tomondan bog'lovchi muhim kategoriyalar hisoblanadi. Chol – konseptiga e'tibor beraylik. Maqollarda, iboralarda, matallarda aks etish konsepsiyasi jihatidan turli xil ma'noviy qatlamlarni o'zida tajassum qiladi. Ertakdagi obrazlar va metaforalar, tasviriy-badiiy san'atlar, umuman xilma-xil vositalarning yuzaga chiqishida, insonning o'zak tomiri – ruhiga ta'sir qilishida, tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida ajralib turishini unutmaslik lozim. "O'zbek tili mana shunday imkoniyati keng til. Unga hadeb chet tillardan so'zlarni tashib kelaverish o'rinsiz. Buning o'rniga o'sha tushunchani ifodalash uchun til imkoniyatidan foydalanishga harakat qilish kerak. Bu o'rinda tillardagi mavjud so'zlarning ko'p ma'noliligiga ham e'tiborni qaratish yaxshi natija berishi mumkin" [1, 36]. Ko'rinadiki, o'zbek xalq maqollari-yu, xalq og'zaki ijodidagi turli xil janrlarda akslangan chol konsepti ham insonning shakllanish moduslarini, tarbiya va axloq kategoriyalarini, shaxsning donishmandlik konsepsiyasini yagona estetik markazda uyushuvini to'laqonli dalolatlaydi. Maqolning har bir ma'noga, tarbiyaga, axloq va komillikka, o'zlikni anglashga

ko'maklashuvchi, boshlang'ich tasavvurlarni o'tkirligini ta'min etuvchi miqyoslarininng turfaligiga kafforat bo'ladi.

Har qanday maqollarning muallifi, yaratilish tarixi va makon hamda zamoni bo'lmaganidek, uning har bir xalq udumlarida namoyon bo'lish o'lchovi ham turlicha vaziyat, sabab va ehtiyoj yuzasidan dunyoga kelgani ayonlashadi. "Keyingi yillarda til birliklarining kognitiv jihatiga katta e'tibor qaratilib, bu sohada olib borilayotgan izlanishlarda mavjud til birliklarining inson tomonidan qayta anglanishi natijasida paydo bo'layotgani ilmiy asoslab berildi. J.Lakoff va M.Jonson metaforik hosila ma'noning paydo bo'lishida ikki kognitiv maydon, ya'ni manba maydoni hamda maqsad maydoni ishtirok etishini ko'rsatadilar. Manba maydoni insonning tajribasi orqali borliqni idrok etishidagi aniq bilimlar yig'indisidir. Maqsad maydoni esa nisbatan kam oydinlashgan, aniqlanishi muqarrar bilimdir" [2, 60]. Chol – konsepti haqida ham shunday manba va maqsadning hosil bo'lish talqiniga e'tibor qaratilsa, o'z-o'zidan insonning faoliyati bilan bog'liq ko'pgina jihatlar oydinlashadi:

"Aqlli qariya – oqib turgan daryo". Keltirilgan maqolda ikki jihat ko'z oldimizda konseptning mohiyatiga yetaklaydi. Birinchidan, **aqlining** – antitezasi – **aqlsiz** bilan aniqlashtirilsa, oqib turgan daryoning foydali xususiyatlari jozibadorlik hissini uyg'otadi. **Qariya** – konsepti, chohninng o'zakdoshidan, sinonimik qatorni hosil qilsa, mavjud masalaga aql va aqlsiz, bilimli va bilmisiz singari antitezalar aniqlanishiga, lingvokognitiv tasnifning yechimi sari yetaklaydi. Xalqimizda aqlli qariyadan, donshmand choldan, nuroniy oqsoqoldan hikmat o'rgan, tajriba orttir, uning ko'rsatmalariga amal qil kabi o'nlab purma'no o'gitlar mavjud. Mana shu purma'no o'gitlardan vaqtida xulosalar olish, har bir mo'min-musulmonninng hayotiy aqidasiiga aylanishi lozimdir. "Hayotni tahlil va talqin qilish, borliqni sezgilar vositasida idrok qilish hamda uni tilda ifodalashda verbal sistema ishga tushadi. His etish va anglab yetish jarayonlari pirovardida hayotning perseptiv ko'rinishi paydo bo'ladi; bu manzara maqollarda tiriklik – baxt, yuk – tashvish, o'tkinchi, kurash, harakat, o'zgaruvchan, mas'uliyat, birlik, oila, farzand, mehr-muhabbat, boylik, tajriba, mehnat, qarz, shafqatsiz leksemalari bilan voqelangan" [3, 5]. Binobarin, qariyalar. Chol va yoshi ulug' kishilarning mehnat va hayot tajribasid aks etgan ma'nolar, donishmandlik qobiliyatlarining umumiy yig'indisi maqollarning turli xil variantlarda verballashuviga olib keladi. Ya'ni dono, zukko, aqqli, ko'pni ko'rgan, bilimdon, zakiy kabi so'zlarning bir ma'no doirasida uyushganlik darajasi maqollardagi mantiqninng nima haqida borayotganiga qarab, shaxsning intelleutual kapitalini, tafakkur va tushuncha semalarini kengayib, sayqallanib borishiga zamin hozirlaydi. Mana shu tariqa maqollar, iboralar, matallarda uzviylik, aks ettirilayotgan konseptlarning bir-birini to'ldiruvchi mohiyat kasb etishi ayon bo'ladi.

Devor bino bo'lmas,

Qari bo'lgan bilan dono bo'lmas.

Mazkur maqoldagi tushunchani ham inson faoliyatidagi tajriba, hayotiy angamlar sifatida talqin qilish mumkin. Ya'ni maqolninng tabiatidagi **devor** so'zi yoshi bir joyga borgan har qanday odamdan aqqli fikr, donolik chiqmaydi degan xulosa kelmoqda. Devorning binoga evrilishi uchun uning ustunlari va tomi bo'lishi lozimligi, qariyaning xatti-harakati, so'zlari, muomalasi, tajribasi bo'lmasa – donoga aylanishi mumkin emas degan ko'pma'nolilik yuzaga kelmodqa. Maqol va matalning verballashuvda **chol** konseptini ifodalashga doir tushunchalar yig'indisini quyidagi misolar bilan talqin qilib chiqamiz.

Ma'lumki, xalqimizning juda uzoq tarixiy-milliy qadriyatlariga aylangan maqollari-yu, matallari mavjud. Uning zamirida yoshlarni mehnatsevarlikka, to'g'ri yo'ldan adashmaslikka, haqiqat yo'lida birlashishga, hayotning achchiq-chuchugini anglashda muhim aqidalarga amal qilishga o'rgatadi. Ana shu mezon har bir inson qalbidagi orzu-umidlarning vaqtida ro'yobga chiqishini ta'minlashga xzmat qiladi. Adabiyotshunoslik lug'atida ham bu borada janrning umumiy ifodasiga alohida e'tibor qartilgan. Maqolning mataldan farqini quyidagicha izohlash mumkin: "Xalq maqollari shakl va mazmun jihatdan matallarga yaqin janr hisoblanadi. Matallar ham ixcham matnga ega ekanligi bilan maqolga o'xshaydi. Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda **"Yaxshi gap bilan**

ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar" degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini *"Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi"* tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamiz. Haqiqatdan ham, maqolning strukturaviy semantikasida hal qiluvchi birgina so'z mavjud bo'lib, shaxsning tabiatini yanada ochib, uning qanday mavqeda bo'lishini, nima maqsadda bunday vaziyatdagi maqolni uning xarakteriga moslanganligini lingvodidaktik tushunchalar doirasida yuzaga chiqadi. Quyidagi maqolda esa yosh xususiyatidan qat'iy nazar insonning hamisha baxtli hayot kechirishi kim bilan yurishiga bog'liq ekanligi bilan bevosita belgilanishni tushunamiz:

Dono bilan yursang, dono bo'lasan,

Ahmoq bilan yursang, rasvo bo'lasan.

Dono va axmoq orasidagi tazod (zidlanish) xuddi kun va tun kabi yorug'lik hamda zulmatni ko'z oldimizga keltiradi. Chunki axmoq o'z bilganidan qolmay, yonidagi hamrohini ham tubsiz jarlik sari yetaklashi, rasvoi olam qilishi, o'zgalar oldida obro'sizlantirishi mumkin. Negaki, dono inson hayotning achchiq-chuchugini va ziyon-zahmatlarini ko'proq totgan bo'ladi. Bizda donishmand ota bobolarimiz deb boshlanuvchi ko'plab ibratli hikoyalar, maqollar va matallar mavjud. Shunday ekan, har bir inson tushunchalar va terminlarni farqlashda hayotiy tajribalarga ega insonlar bilan hayot kechirsa, ularning ilmu ma'rifatiga amal qilishsa, maqsadga muvofiq ish qilgan bo'ladi. Dunyoning jadal suratlarda taraqqiy etishi bilan bog'liq xilma-xil hayotiy ma'no kasb etuvchi maqollar, matallar o'ylab topishmoqda. Yangidan-yangi epizodlar ham inson qismatini butunlay tubdan o'zgartirib yuborishi tayin gap.

Ta'kidlash o'rinliki, har bir maqol va matal mohiyatida insonni ezgulikka chorlovchi dono nasihatlar bo'lishi tabiiydir. Jumladan, "Adabiy-tarixiy yodgorliklarimizning har bir zarvarag'ida, keksalarimizning ikki gapini birida xalq maqollari va ibratli so'zlarga duch kelaverasiz. Bu tushunarli, albatta. Chunki turmush tajribalari asosida shakllangan maqollar tarbiya masalalarida hamisha muhim o'rin tutgan. Bugun esa qalin-qalin kitoblarda ham, zamondoshlarimiz nutqida ham ular juda kam qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Ayni paytda andishasizlik, imon-e'tiqodning yo'qligi kabi g'ayriinsoniy xislatlar ko'paydi. Bu ikki hodisaning bir vaqtga to'g'ri kelishi tasodifmi yoki ularning oz bo'lsa-da, o'zaro bog'liqligi bormi?

"Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda maqollar mazmunida ham turli darajadagi o'zgarishlar – torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o'ziyoq maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Demak, maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda asosiy vazifani bajaradi. Haqiqatdan ham, maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini, e'tiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratini, orzu va intilishlarini obyektiv baholaydi" [4, 678]. Mazkur manbaga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, maqol va matallardagi inson shaxsining surati va siyratini, muomalasi va madaniyatini, olijanobligi hamda bag'rikengligini, millatlararo hamdo'stligini his qilamiz. Jumladan, islom dinida sabr konseptining kengroq tushuncha hosil qilishiga doir juda ko'plab diniy-ilohiy, falsafiy-psixologik manbalar mavjud. Sabr – inson tadqiriga juda jozibali bir idrok va mayoq tuhfa qiladi. Sabrli bo'lishga o'rgatish, chol konseptida ham, qariya yoki nuroniy taqdiriga oid tajribalar yig'indisida ham juda katta ma'nolar maydonini azim maqsadga evrilishida alohida o'rin egallaydi:

"Bir donishmand Ka'bani tavof qilarkan, soch-soqollari oqargan bir kishini yelkasiga opichlab olgan odamga duch kelibdi. Haligi odam hadeb yelkasidagi qariyaga:

– Yoshligimdagisi kamlik qilgandek, endi keksayganimda ham boshimga dard bo'lding! – dermish. Buni eshitgan donishmand hayratini yashirolmabdi:

– Ey do'st, afsus, sen bu minnatlaring bilan otangga qilgan yaxshiliklaringni savobidan judo bo'lyapsan. Otangni e'zozlash sening burching-ku!

– Ey birodar! Nimalar deyapsiz? Yelkamdagi otam emas, o'g'limdir. Men uning otasiman, – debdi haligi kishi.

Donishmand battar hayratlanibdi:

– Axir uning soch-soqollari oppoq, sendan qari ko'rinadi-ku!

– Ha-a, – debdi boshini chayqab u odam. – O'g'lim noma'qul, badfe'l xotinga uylanib qo'yib shu ko'yga tushdi...

Donishmand uyga qaytgach, bu voqeani shogirdlariga ayta turib, debdi:

Erkakning aft-angori uning xotini haqidagi eng ishonchli hujjat ekan! [5,34].

Mana shu rivoyatda birgina so'zga teng maqol o'z ifodasini topsa, **ya'ni "Oari bilganni – pari bilmas"**ni yodimizga tushiradi. Doshinmandning o'z o'g'li haqidagi qarashlari universallik kasb etib, qariya-cholning xarakter xususiyatlarini estetik jihatdan bo'rttirib ko'rsatadi. Natijada hayotning pastu balandini totgan qariya xakteri yanada tiniqlashib, hayotning og'riqlaridan xulosa chiqarishni, yaxshi xotin urning qaro yer emas, baxtli qilishini dalolatlashga yo'naltiriladi. Dunyo xalqlarida maqol va matallar, iboralarning verballashuvi xususida juda ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ya'ni bitta so'z doirasida konseptlar olamning lisoniy manzarasini lingvokognitiv tilshunoslik miqyosida qaytadan kashf etishga zamin hozirlaydi. Ayni paytda, maqollarning har bir kasbga, shaxsga, vaziyatga, holatga, tabiatga bog'liq juda ko'plab qirralari keng va tor doirada inson psixikasini ham badiiy-tasviriy vositalar negizida anglash imkonini beradi. Maqol va matallarda milliy o'ziga xoslikni ifodalash xususida kelsak, bu – g'oyat og'ir ish. Aynan milliy o'ziga xoslik stilistik bo'yoqlarda katta rol o'ynaydi. Kitobxon asliyatda yoki tarjimada o'qishiga bog'liq ravishda stilistik kolorit turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, fransuzlar eng avvalo maqol va matallarning nutq uslubiga mansubligiga e'tibor qiladi. U qo'llanayotgan maqol va matalning asarning umumiy fabulasi, muayyan shartlari, obrazdagi tipik qahramonlar bilan uyg'unligi haqida o'ylaydi" [6, 32]. Darhaqiqat, o'zbek xalq maqollarida ham bunday nutqiy uslub fragmentlariga diqqat qaratish tinglovchining obrazli tafakkur yuritishga olib keladi. Natijada, maqol, matal va iboralarning juda ko'pchiligida chol konsepti – donishmandlik, zukkolik va donolik semalariga borib tutashishini tasdiqlaydi:

Ma'rakada topib gapirgan – dono,

O'zini tutib o'tirgan ham – dono.

O'zbek xalqi azal-azaldan yoshi ulug'larni o'zaro hurmat-izzatda saqlash, ularning dono fikr-mulohazalariga zimdan quloq solish, hayotiy tajribalaridan tayinli ibratlar olishga keng diqqat qaratishi bilan boshqa xalqlardan mental xususiyatlari ajralib turadi. Negaki, bizda yoshi ulug' odam biror tadbirga kelsa-yu, u yerda tinglovchilar asosan yoshlar bo'lsa, hamda gapiruvchi (va'z aytuvchi) dono-qariyalarning suhbatlarini tinglashni o'zlariga odat deb bilishadi. Yuqoridagi maqolda donolikning ikki jihati qabarib ko'rinadi. Masalan, ma'raka, biror tadbirida o'zini nutqida munosib davraga mos so'zlarni, maqollaru hikmatlarni o'rni-o'rnida foydalana olishi donolik belgisi, o'zini tinglab, tutib o'tirgan ham donolik ekaniga mantiqiy urg'u berilmoqda. **Topib** gapirgan bilan, **tutib** o'tirgan jumlasida – **donishmandlik** alomati zuhur etilishini ko'ramiz.

Biz olamni u yoki bu yo'sinda (boshqacha emas) qismlarga ajratishimiz, tushunchalar vositasida ifodalashimiz va ma'nolarga taqsimlashimizning sababi biz ham bunday tizimlashtirishga undovchi kelishuv ishtirokchilarimiz. Bu kelishuv ma'lum bir lisoniy jamoa uchun majburiy va bizning lisonimiz tizimidan joy olgan. Shunday qilib, nisbiylik tamoyilining yangi ko'rinishiga duch kelamiz va uning mazmuni quyidagicha: bir xil fizik hodisalardan tarkib topgan olamning bir xildagi tasviriga faqatgina til tizimlarining bir xil yoki hech bo'lmaganda o'xshashligidagina erishish mumkin" [7, 59-68]. Zero, nutqiy ong va tuyg'u nisbati obrazli tafakkur sarhadlarini kengaytirib, yangidan-yangi atamalarning zuhur etilishiga oydinlik kiritib boradi. Til – voqelikni inson tuyg'ulari bilan birga namoyon etgandagina, uning ta'sir kuchi alohida mavqe kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Т: "Ўзбекистон". 1992. – Б.36.
2. Юлдашев А.Г.Кўчма маъноли сўзларда когнитив механизмларнинг ўрни // —Ўзбекистонда хорижий тиллар| илмий-методик электрон журнал journal.fledu.uz № 3/2019. – Б.60.
3. Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферати. – Тошкент, 2022. – Б.15.

4. Мадалов Н. Инглиз тилшунослигида мақолларнинг лингвистик тадқиқи. // Academic Research in Educational Sciences. 2022. №3. – Б.678-682.
5. https://www.facebook.com/groups/nasihat1/permalink/43584294342106_23/ Гўзал панд насиҳатлар китобидан олинди.
6. Шекуров Г.П. Некоторые вопросы перевода с русского языка на французский, Автореферат канд. дисс., – Л., 1956. – Б. 32.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: "Сангзор". 2006. – Б. 59-68.
8. Normo'minov, S. T. (2023). Til tizimi va so 'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida. 2016 no. 6 (100/1), 100(66), 5-10.
9. Нормуминов, Ш. Т. (2020). Взаимосвязи и развитие парадигм частей речи. *Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук*, (6), 142-147.
10. Anorqulova, O. N. K. (2021). Interpretation of the concept of father in some oral and written sources. *Current research journal of philological sciences*, 2(07), 20-24.
11. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.
12. Yoqubov, I. (2025). O'zbek va turk tillaridagi gap bo'laklarining qiyosiy tavsifi. *fars International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(2), 9-14.
13. Alikulova, D.O., & Pardayev, S. S. (2024). Increasing students'vocabulary by using didactic games and interactive methods in teaching synonyms. *Journal of Science, Research and Teaching*, 3(12), 15-18.
14. Shokir o'g'li, P. S. (2024). Omonim so 'zlarni o 'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. *Miasto Przyszłości*, 54, 1744-1746.
15. Erbutayeva, S. U. (2021). About some auxiliary words in Uzbek language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1294-1300.
16. Utkirovna, E.S., & Pardayev, A. B. About New Assistants in Uzbek Language. *JournalNX*, 333-336.
17. Utkirovna, E.S. (2023). Badiiy matnni shakllantirishda funksional ko'makchilarning o 'rni. *Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси* <http://mamun.uz/uz/page/56>, 4, 43-45.
18. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).